



MAHALLA O'ZBEK MILLIY-MADANIY QADRIYATLARNI
TAKOMILLASHTIRISHNING O'CHOG'I

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligi
2-bosqich magistranti Mavlonova Sarvinoz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahallalar ma'naviyatning chin ma'nodagi o'chog'i ekanligi, mahalla – aslida ishonch, adolat, insof va diyonat maskani bo'lmog'i lozimligi, bugungi kunda mahallalarga qaratilayotgan e'tibor, oila va mahalla munosabatlari gavdalanirilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, qadriyat, oila, ma'naviyat, inson qadri, mahalla instituti, tarbiya.

Аннотация: В этой статье тот факт, что район является истинным центром духовности, район должен быть местом доверия, справедливости, честности и религии, внимание, уделяемое району сегодня, и отношения между семьей и районом.

Ключевые слова: Соседство, ценность, семья, духовность, человеческая ценность, институт соседства, образование.

Annotation: In this article, the fact that the neighborhood is a true center of spirituality, the neighborhood should be a place of trust, justice, honesty and religion, the attention paid to the neighborhood today, and the relationship between the family and the neighborhood.

Key words: Neighborhood, value, family, spirituality, human value, neighborhood institution, education.





*“Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi kerak.
Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor
bo‘lish mahallaning asosiy vazifasidir”.*

Sh.Mirziyoyev

Barchamizga ma’limki , Markaziy Osiyo mintaqasida qadimdan insonlar bir jamoa bo‘lib hayot kechirganlar. Shuning uchun ham har qanday sharoitda jamoa a’zolari bir-biriga qattiq ishonishgan. Ayniqsa, tabiiy ofatlar, ocharchilik davrlarida insonlar bir-biriga yordam berishgan. Natijada, jamoaviy ong, xulq, axloq, tarbiya va boshqalar shakllangan. Mazkur tushunchalar asosida muayyan xalqning mentaliteti vujudga kelishi va rivojlanishi yuz bergan. Turli mintaqa yoki hududda yashovchi tub aholining o‘ziga xos dunyoqarashi, urf-odatlar, an’analari, axloqiy me’yorlarining bir-biridan ajralib turishiga xuddi shunday omillar sabab bo‘lgan. Mahallalar tirik organizm singari yashash uchun kurashib kelgan. Mahalla ahli har doim og‘ir shart-sharoitlarga moslashgan. Lekin, qaysi xalqning turmush tarzini o‘rganmang, insonlarning o‘zaro bir biri bilan bog‘lab turuvchi rishta bu – ishonch ekanligini guvohi bo‘lasiz. Insoniyat yaralibdiki doimo uyushib yashab kelgan .Chunki bir joyda uyushib yashash turli xil xavf-xatardan himoyalashni osonlashtirgan .Shu sababli ovular ,qishloqlar va shaharlar paydo bo‘lgan .Ayniqsa ishlab chiqarishning o‘sishi va mehnatni tashkil etish masalasi kun tartibiga qo‘yilishi bilan xalqni bir joyda to‘planib yashash istiqbolini yanada rivojlantirdi .Bu hol mamlakatimiz halqlari tarixiga mos bo‘lib ,xalqimizning turmush tarzi va tafakkurida o‘chmas iz qoldirgan . O‘zbek qishloqlarida turli marosim va to‘ylarni o‘tkazish uchun oqsoqollar muhim rol o‘ynagan .Qishloq oqsoqoli obro‘li ,halol inson bo‘lib boshqalarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan .Chorvador xalqlarda ham qishgi va yozgi yaylovlarda muvaqqat ovular bo‘lgan hamda ularni oqsoqollar ,yurtning obro‘li insonlari boshqarganlar .Shaharlarning paydo bo‘lishi bilan mahallalar yuzaga kelgan . Uzoq tarixda turli xil kasb egalari alohida – alohida bo‘lib birlashganlar. Natijada baqqollar, kosiblar kulollar va h.k. mahallalari paydo bo‘lgan. Lekin yaqin o‘tmishda

vol. 1 issue. 3 (2023)





barcha kasb egalari aralash-quralash bo'lib ketgandan keyin ma'lum bir hudud mahalla bo'lib shakllanadi . Mahallalar ham davrga qarab o'zgarib boradi , ularning boshqaruv shakli ham yildan – yilga takomillashib , hozirgi ko'rinishga ega bo'ldi. Mahallaning o'ziga xos turmush tarzi bo'lib , kim bo'lishidan qat'iy nazar uning qonun-qoidalariga bo'sunadi, bir-birlariga yordam beradi, to'y – ma'raka , hasharida birga bo'ladi. Shu sababli mahallaning turmush tarzi unda yashayotganlar tafakkurida o'ziga xos iz qoldirdi.

Asrlar davomida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy urf-odatlar va qoidalar, jamoatchilik fikri hamda o'ziga xos dunyoqarashi mahallada shakllanib kelgan. Yosh avlod tarbiyasi, oila yuritish san'ati, qo'ni - qo'shnichilik xislatlari mana shu madaniyat, odatlar va an'analar asosida olib borilgan. Masalan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanib, ezgu qadriyatlarimiz sayqallanib, jamiyat rivojiga katta hissasini qo'shib kelgan. Konstitutsiyamizning 105-moddasida uning huquqiy maqomi belgilab berilganligi natijasida tegishli huquqiy-me'yoriy va tashkiliy poydevor yaratildi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, mahalla to'g'risidagi ma'lumotlar Mahmud Qoshg'ariy , Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida ko'plab uchraydi. Masalan, Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Beruniyning “Uy xo'jaligini yuritish to'g'risida”, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ati turk” asarlarida mahalla aholisi, ularning kasbi-kori, urf-odatlar, an'analar, diniy e'tiqodi, xo'jalik yuritishi va umuman o'ziga xos turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar keltirganlar. Mahalla shunday bir muqaddas makonki, unda insonlar bir- birlari bilan opa- singil, aka- uka, quda- anda, do'st-birodar bo'lib, bir xonadondagi to'yu maraka, motam, barcha xonadonlarning farzand tarbiyasida ham barcha mahalla ahli mas'ul, yutuqlar ham kamchiliklar ham umummahalla ahliniki hisoblanadi. Shuning uchun ham halqimizda “ Otang – mahalla , onang –mahalla “ degan naqil bejiz aytilmaydi . Mahalla haqidagi gap ketganda , birinchi prezidentimiz I. Karimov takidlaganidek : “Asirlar mobaynida mahallalarda ko'pdan – ko'p muammolar o'z yechimini topib kelar. To'y-
vol. 1 issue. 3 (2023)



marakalar ham , xaytu xashadlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy , iqtisodiy va boshqa masalalarga dair jamoatchilik fikri shakillanadi . Bu esa halqimizning turmush tarzi , ota – bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzida . Binobarin , hayotning o'zi mahallalarni rivojlan tirish va ularni qo'llab – quvatlasni taqoza etmoqda. Mamlakatimizda ko'p miqdorda islohatlar amalgam oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchnli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib hizmat qilishi lozim ”.

Bugungi kunda ham Mahallaga , mahalla institutiga yuksak e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada rivojlantirish, mahallaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakat va jamiyat ravnaqida mahallaning rolini oshirishga xizmat qilmoqda. «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonni ham bu sohaga naqar yuksak e'tibordan dalolat beradi . Farmon bilan **O'zbekiston Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash** vazirligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib, unda Vazirlikning asosiy vazifalari va funksiyalari belgilab berilgan. Bundan tashqari, Hukumatning qarori bilan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institutning asosiy vazifalari etib, fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish; ijtimoiy yordamning ilmiy-metodologik asoslarini shakllantirish kabi masalalar belgilangan edi. Albatta, yuqorida qayd etilgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi faoliyatiga mahalla mutasaddilari va fuqarolarning munosabatini tubdan o'zgartirish, mahallani ishonchli, harakatchan ijtimoiy tuzilmaga



aylantirishdan iboratdir. Alohida ta'kidlash joizki, mahalla tizimi vakillarida o'z majburiyatiga nisbatan xolislik bo'lmas ekan, Prezidentimizning mahalla tizimi obro'sini ko'tarish, xalqqa yanada yaqinlashtirish bo'yicha amalga oshirayotgan barcha sa'y-harakatlari natija bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning siyosatiga, islohotlar jadallashuviga, ijobiy natijadorlikka putur yetkazadi. Ishonch yo'qoladi.

Mahallalarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida fuqarolar yig'ini kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlari, hududdagi profilaktika inspektorlari, ta'lim muassasalari va oilaviy poliklinikalar rahbarlari kiritildi.

Mahallada norasmiy ijtimoiy aloqalar tizimi tarkib topgandir. Agar biron to'y bo'lsa, oqsoqolning biror og'iz gapi bilan barcha qo'ni-qo'shilar xizmatda bo'ladi. Kim choy qaynatadi, kim masalliq olibkeladi. Xotin-qizlar ham barchasi xizmatda bo'ladi. Ma'raka ham xuddi shunday, bir og'iz gap-so'zsiz ijro etiladi. Hamma mahalla sha'nini saqlashga harakat qiladi. Bu yerda jamoa va oqsoqollar fikriga bo'ysinish tamoyili ustuvordir. Bu narsa sharqona ruxiyatga mosdir. Shu sababli xalqimiz orasida "Mahallang otang –onang", "Bir bolaga yeti maxilla ota –ona" iboralari paydo bo'lgan bo'lib, kishilarning eng hursanchilik va og'ir kunlarida ham insonlarning kuniga yaraydi, yordamko'rsatadi, kishilarning ko'nglini ko'taradi. Yuqorida keltirilgan iboralarning mazmun mohiyati naqadar chuqur bo'lib tarix sinovlaridan o'tgan. Shuning uchun xalqimiz orasida hamon yangi mazmun bilan yashab kelmoqda.

Ayni paytda maxilla ko'pchilik uchun ma'naviyat muxit hisoblanadi. Chunki bu yerda iborat bo'larli voqialar ham, ogohlantiruvchi voqealar ham sodir bo'ladi. Agar mahallada ma'naviy muhit yomon bo'lsa, u yerda turli bezorilar, jinoyatchilar, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchilar ko'payadi. Agar ma'naviy muxit yaxshi bo'lsa, buning teskarisi bo'ladi, ya'ni ilimli, iymonli, mehnatkash insonlar ko'payadi. Shu sababli ma'naviy muxit shaxsan ham, butun avlodni ham muayyan yo'nalishda shakillantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy hislatlarni





yuzaga chiqaradi ,ularning maqbul ta'sirlardan himoya qiladi. Ma'naviy muhit har qanday yutuq va kashfiyotlarnig (chetdan qabul qilingan yangi qadriyatlarining ham) taqdirini belgilaydi: yo rivojlantiradi, yo unutilishiga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib , o'ziga moslashtiradi. Ma'naviy muhit – jamiyatning hissiy , aqliy va jismoniy kamolot borasida erishgan o'rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshirish tartibi. Muhit odatda, barqarorlikka bir tekislik va bir xillikka intiladi, uning talablari va ta'siri hammaga birdek – o'rtacha bo'ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o'zini tarbiyalaydi,takomillashadi, o'sadi va hokazo. Har bir yosh avlodning ma'naviy yetuk, komil shaxs bo'lib voyaga yetishida musaffo havо , tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda katta rol o'ynaydi.Buyuk yunon olimi Demokritdan bir kishi kelib so'raydi: - Hozirgi yoshlar to'g'risida nima deya olasiz ?-Hozirgi yoshlar o'z bilganidan qolmaydilar ularda kattalarga hurmat , kichiklarga izzat yo'qolgan, mahmadona va o'zbashimcha bo'lib ketishgan . Buning oldini olish uchun oiladagi va mahalladagi tarbiyani kuchaytirish kerak,- deb javob beribdi buyuk mutafakkir. Demak, mahalla kishilarning tarixan shakllangan yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatadigan makoni hisoblanad. U o'zbek xalqining turmush tarzi ,ruxiyati ,ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks etiruvchi, milliy ananalarni, urf-odatlari, axloqiy ma'naviy qadriyatlarini avloddan- avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Maxalla insonlarining millati , yoshi ,jinsi ,dini ,irqi tili, e'tiqodi ,ijtimoiy kelib chiqishi ,shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi .Bu oila insonlarning bir- biriga bo'lgan o'zaro hurmati ,muhabbati, mustaxkam do'stligi asosida yashaydi ,faoliyat ko'rsatadi . Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq .Zotan mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topgani kabi ,oila ham mahalla ichida ravnaq topadi ,nurli kelajak sari intiladi . Kerak bo'lsa ,mahalla oilaning eng yaqin maslaxatchisi ,tog'day tayanchidir .Sharq xalqlari masalan , o'zbek xalqi shu narsani biladi , teran





ma'no - mazmunini yaxshi tushunadi . Darhaqiqat, Sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham , boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir.Insonlar o'rtasidagi bunday bog'liqlik va hamjihatlikning muhim vositasi– mahalladir .

O'zbekistonda turmush madaniyatini yuksaltirish va juda ko'plab muammolarning hal etilishida tarixiy vazifani bajargan mahalla –xalqning xalq bo'lib maydonga chiqishiga eng birinchi omillardan bo'ldi, desak sira yanglishmagan bo'lamiz mahalla birlashtiruvchi kuch bo'lib ,Vatanning bir bo'lagi hisoblanadi . Mahallada yutuqlar , kam ko'stlar ham qo'ni –qo'shnilarga ma'lum .Odamlarning bir –birlarini yaxshi bilishlari natijasida o'rtada mexir – oqibat paydo bo'ladi . Oqibatning boshi andishalikda.Bularning barchasi xalqimizni ma'naviy jixatdan yuksaltirgan, uni madaniyatli xalqlar qatoriga ko'targan eng qimmatli milliy belgilardandir .Mahallani tinchlik va osoyishtalik qo'rg'oni, deyish ham mumkin. Afsuski ,bizda mahallalar tarixi kam o'rganiladi .Aslida ,millat tarixini o'rganish mahallalar tarixini o'rganishdan boshlanadi. Bizda mahallalar yangi o'zaro yaqin hamkorlik va turli hunarmandchiliklarning ham maskani bo'lgan .Mahallalar nomlarining o'zi ko'xna bir tarix; ko'nchilik ,pichoqchilik ,jivoz kashlik ,charxchilik etikdo'zlik va hokazo .Shu bilan birga «professorlar», “olimlar “,”shifokorlar” ,” geologlar “ nomi bilan yurutiladigan mahallalar ham mavjud .

Mahalla katta mamlakatning ichidagi kichik bir mamlakatdir , katta davlat ichida kichi davlat . Shuning uchun uni boshqaruv tizimi bo'lgani kabi, uning o'ziga hos ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy – ma'rifiy faoliyat mexanizm ham asirlar davamida shakillangan . Mahalla , unda yashovch oilalar va turli hal yoshu jinsdagi insonlar uchun hos bo'lgan tadbirlar amalgam oshirilib kelinmoqda . “Balli qizlar “ , “Yoshlar mustaqil hayot ostonasida“, “Huquqingizni bilasizmi ? “ , “ Oila mustahkamligi kimga bog'liq “ , “Oila – jamiyat tayanchi “ , “Bolali oilalarga imtiyozlar “ , “Qaynona- kelin

Vol. 1 Issue. 3 (2023)





munosabatlarning ahlaqiy –ma’naviy asoslari” va boshqa tadbirlar .

Yurtimizda 2022- yilni **Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili** deb e’lon qilinishining o’zi bu sohaning naqadar muhim ehaning aglatadi. Maasalan , O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasi, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 8, 10, 11 va 12-moddalariga muvofiq, shuningdek fuqarolar yig‘inlari raislarining vakolat muddati 2022-yilning may oyida tugashi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi qaror bilan : 1. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari)ning navbatdagi saylovi 2022-yilning may oyida o‘tkazildi. 2. Navbatdagi saylovda 9 349 nafar fuqarolar yigini raisi (oqsoqoli) saylanishi ma’lumot uchun qabul qilindi. 3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari: 2022-yilning 25-martiga qadar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyalarni tuzishdi; har bir deputatga o‘z saylov okrugida fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishda faol qatnashish tavsiya etildi. 4. Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi respublika komissiyasi a‘zolari joylarda fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar komissiyalariga amaliy yordam ko‘rsatildi. 5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklari fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlariga ko‘maklashish, zarurat bo‘lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta‘minlash choralarini ko‘rildi.

Fikrlarimiga xulosa qilar ekanman , mahallalar ma’naviyatning chin ma’nodagi o‘chog‘idir . Mahalla – aslida ishonch , adolat , insof va diyonat maskani





bo‘lmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1."Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" Davlat dasturi
- 2.Muroadov M.M "O'zbek qadriyatlari"
- 3.Lex.uz
- 4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

